

SULTON JALOLIDDINNING SIYRATI VA SURATI

Hazratqulov Ozodbek Bektemir o'g'li

Nav P. I Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Muftillayeva Umida Tohirovna

Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi o'qituvchisi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi . U xalqlarning qonida ,tarixiy xotirasida saqlanadi". Mana shunday xalqimizning xotirasida mangu jasarot timsoli bo'lgan hatto Chizgizzonni lol qoldirgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdidir. Hozirda keljak avlodning xotirada mardlik, botirlik, dushmanga bo'yin egmaslik, doim haqiqat uchun kurashuvchi inson sifatida tarixda iz qoldirgan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdidir. U inson hech qachon tarixiy xotiradan o'chmaydi.. Jaloliddin Manguberdini tariflaydigan bo'lsak, u inson bug'dayrang, o'rta bo'ylik turkiy qiyofalik, va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligiga jasurligiga kelsak, uning janglardagi faoliyatini eslab o'tishning o'zi kifoyadir. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rmas chavondoz lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratonomus so'zlarni aytmasdi. U inson nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U inson haqgo'ylikniadolatni ulug'lardi. Ammo u yashagan davrda g'aloyonlar alg'ov-dalg'o'vlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. U qo'l osdidagi odamlarning og'ir hayotini yengillashtirishini xohlardi. Ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi. Jaloliddin Manguberdi 1198-1231 yillarda yashagan so'ngi Xorazmshohdir. U Anushteguniylardan. Onasi Oychechak turkman kanizaklaridan bo'lgan. Jaloliddinning burnida xoli bo'lganligi uchun "Mankburni" degan nom bilan atalgan. Keyinchalik bu talaffuzda o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Jaloliddin Manguberdi yoshligida ham o'ta serg'ayrat bola edi. Unda yoshlikdan boshqaruvchanlik qobiyati bor bo'lgan. O'z tengdoshlari orasida ajralib turuvchi xislatlari bor edi . Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach G'azna, Bomiyon, G'ur, Takinaobod hududlarigacha bo'lgan yerkarda hokim qilib tayinlangan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy ishtirok etib o'zining jasur jangchi iqtidorli qobiliyatini namoyish etgan. Chingizzonning harbiy yurishlarida Xorazmshoh davlatining katta hududlarining egallanishi natijasida Xorazmshoh Muhammad Kasbiy dengizida joylashgan Obeskum shahri yaqinidagi Ashura orolida panoh topadi. Bu yerda Xorazmshoh Muhammad kasallikka chalinadi. O'limi yaqinligini bilgan xorazmshoh Muhammad o'z o'g'llarini huzuriga chaqiradi va oldin taxt vorisi bo'lgan O'zloqshohni emas balki so'ngi damda Jaloliddin Manguberdini taxt vorisi qilib tayinlaydi. Jaloliddin Manguberdi vatan ozodligi uchun oshiqadi. Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullar ustidan ilk g'alabasi Valiyon qal'asidagi

mo'g'ullarning tarmor etilishidir. Bu jang mo'g'ullar ustidan qozonilgan ilk g'alabadir. Keyin bu jangdan keyin Chingizhonning o'zi katta qo'shin to'plab Jaloliddinga qarshi yurish qiladi. Fapdiz qal'asidagi jangda Jaloliddin mo'g'ullarning ilg'orini yengadi. 1221-yil 25-noyabrda tengsiz jangda Sind daryosidagi jangda mag'lubiyatga uchrab Sindning o'ng sohilidan kechib o'tib cho'lga kirib ketadi. Chingizzon Jaloliddin Manguberdining bu jangdagi jasoratiga qoyil qolib o'z o'g'llariga qarata "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi kerak" deya kinoya qilgan ekan. 1227-yilda Isfahon yaqinidagi jangda Toynol noyon boshchilikidagi mo'g'ullar ustidan ham g'alaba qozonadi. Bu jangda hatto Toynol noyon ham Jaloliddin Manguberdining jasoratiga tan beradi. Toynol noyon Jaloliggin Manguberdiga qoyil qolib "Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o'z tengqurlarining sarvari" deya tariflagan edi. Dunyoning 5\2 qismini bosib olgan Chizgizzon lol qolgan jasoratiga tan bergen sarkarda bu so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdidir. Butun mo'g'ullar davlatini lol qoldirgan vatan ozodligi, yurt tinchligi uchun jonini ayamagan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdidir. Jaloliddin Manguberdining vatan uchun qilgan jasoratlari kelajak avlodning mangu xotirasida muhrlandi. Faqat yurt ozodligi uchun yonib yashagan dushmanga bo'yin egmagan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi turk olamida emas butun dunyoda jasurlik vatanni sevish bukilmas iroda singari mardlik timsoliga aylandi.

Hatto Jaloliddin Manguberdining so'ng uning shonli nomi tez orada xalqning tilida doston bo'lib ketdi. "Jaloliddin tirik" "Jaloliddin qaytib kelyapti" degan ovozalar uzoq vaqtgacha mo'g'ullarni tahlikaga solib kelgan. Sulton Jaloliddin nomi bilan bog'liq har qanday ma'lumot, voqealikni mo'g'ullar sinchkovlik bilan tekshirganlar. Jaloliddin Manguberdi nomi mo'g'ullarni har doim tahlikaga solgan. Sulton Jaloliddinnning jang san'ati ham o'zgacha edi. U jangga sher kabi kirar edi. O'limdan qo'rmasdi. Sulton Jaloliddin og'ir janglarda ham matonat ko'rsata oladigan qo'rmas jangchi edi. Jaloliddin Manguberdi Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'llar ustiga harbiy ilm tarixida ilk bora "Piyoda chavondozlar" ni mo'g'llarning otliq askarlariga qarshi qo'yadi. Hatto bu harbiy usuldan Inglizlar keyinchalik bu habiy usulga yuqori baho berib o'zlarining mashhur Kress yaqinidagi janglarida bu usuldan foydalanganlar. Bilamizki Sulton Jaloliddin Manguberdi davlat tepasiga kelganida davlat og'ir holatga tushib qolgan edi. Mana shunday vaqtida Sulton Jaloliddin tarix sahnasi kelgan edi. Bu vaqtida Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'llar tomonidan istilo etilgan, Xorazmshohlar qo'shini yakson etilgan, amirliklarning bir qismi xoinlik, qolganlari o'z jonini va mulkini asrash yo'liga tushgan, o'zoro taxlika hukm surgan davr edi. Shunday bo'lsa ham Sulton Jaloliddin bu vaqtida boshqa Xoramshohlar kabi yo'l tutmadi u vatan ozodligi uchun oshiqdi. Vatanning har bir qarich yeri uchun mardonavor urushar olib bordi. Sulton shunday og'ir vaziyatda vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'llarga qarshi 11-yil davomida

jang olib bordi. 14-maratoba mo'g'illarga qarshi ot surib 13-tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muaffaq bo'ldi. Jaloliddinni Manguberdini o'rta asr tarixchilari o'z asarlarida hamisha uni mard jasur sarkarda sifatida ta'riflashgan. Jaloliddin Manguberdini shaxsan bilgan Tarixchi an-Nasaviy unga shunday tarif bergan edi. "U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida arslon, otliqlar orasida eng jasuri edi... U adolatni sevgan. Uning farmonlarida yolg'iz so'z: 'Yordam yolg'iz Allohdandir' degan shior bo'lgan." Sulton Jaloliddin ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida sharq xalqlari tillarida doston bo'lib keldi. Sulton Manguberdi jangdagi mohirligi va jasurligi bilan birga ulkan bilim sohibi va adolatligi bilan barcha tengdoshlarin qoyil qoldirgan sarkarda edi. Sulton bir vaqtida mo'g'ullarga qarshi va ikkinchi tomonidan ichki dushmanlarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Sultonning eng yaqin kishilari xiyonat qilgan vaqtida ham kurashdan to'xtamadi. Lekin xiyonatni kechirmasdi. Har doim xiyonat qilganlarni jazolashni o'ziga loyiq topardi. Bu tufayli xalqqa ko'p jabr-zulm keltirgan va boshqa amaldorlarning faoliyatini taftish qilib ularni ham jazoga tortardi. Bu xususida Tarichi an-Nasaviy shunday deya yozgan edi... "Jaloliddin davrida bir qancha fitnalar, g'am-qayg'u mashaqqat va anduhlarga, vazirlarninig tarqalib ketishiga, va mehnatkash ommaning atroflarga boshipana izlab yurishlariga barham berildi. Ular birlashtirildi va mustahkamlandi. Shu tariqa Sulton Jaloliddin Manguberdi tariximizda ulug' zotlardan biri - mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan, vatan ozodlik yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, mardlik timsoliga aylandi. Xulosa qilib shuni aytish mumkunki Chingizzonni hayratlantirgan ota sifatida havas orttirgan buyuk Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining jasorati har o'zbek bolasining xotirasida mangu yashaydi. Kelajak avlodimiz buyuk ajdodi bilan fahrlanib Jaloliddindek vatanga munosib pospon bo'lib yashashga harakat qiladi. Onalar allasi otalar jasorati keksala nasihatida Manguberdi ruhi abadiy yashaydi.

Chaqmoqdek qisqa umr davomida o'zbek xalqiga xos bo'lgan vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni nomoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdini hamisha yurtimiz bilan har qancha fahrlansak, g'ururlansak arziydi. Ishonaman, oradan yillar, asrlar o'tadi, Sulton Jaloliddin hamisha yurtimizni ko'z qorachig'idek asrab – avaylash, unga farzandlik mehri, iymon – e'tiqot bilan xizmat qilishning o'chmas timsoli bo'lib qoladi,- deya ta'kidlaydilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Tarixi "Darslik" Toshkent 2018. 433-440 betlar.
- 2.Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy "Sulton Jaloliddin Manguberdi xayoti va tavsioti".
- 3.https://liv.uz/nevs/shavkat_mirziyoyev.